

## OILADA O'SMIRLAR TARBIYASI.

**Dauletova Go'zal**

*Qoraqalpoq davlat universiteti,*

*'Pedagogika va psixologiya" kafedrasи o'qituvchisi*

**Jumanazarova Gulsevar.**

*"Amaliy psixologiya" yo'nalishi II-bosqich talabasi*

*Sayyoramizning ertangi kuni, farovonligi farzandlarimiz qanday inson bo'lib kamolga yetishi bilan bog'liq. Bizning asosiy vazifamiz-yoshlarning o'z salohiyatini namoyon qilishi uchun zarur sharoitlar yaratishdan iborat.*

***Sh.M.Mirziyoyev***

**Tayanch so'zlar.** Tarbiya, oila, o'smirlilik davri, individuallik, ijodiy faoliyat, qobiliyat, hissiyat, muloqot, diqqat, tasavvur, do'stlik.

«Har bir millatning saodati va izzati albatta shu xalqning ichki intizomi va totuvligiga bog'liq. Tinchlik va totuvlik ana shu millat oilalarining intizomiga tayanadi. Qayerda oila munosabati kuchli intizomga tayansa, mamlakat va millat ham kuchli va muntazam bo'ladi. Agar bir davlatning halqi bedob va nodonlik bilan oila munosabatlarini ojizlantirsa, intizomsizlikka yo'l qo'ysa unda bu millarning saodati va turmushi gumon ostida qoladi». Abdurauf Fitrat

Oila kelajak avlodga kuchli ta'sir etish tarbiya maskani hisoblanadi. Shu sababli yoshlarning jamiyatda o'zlarining o'rinni topishga ko'maklashish va ularning oila qurishiga e'tibor qaratish barchadan javobgarlik taqozo qiladi. O'quv yurtlarida farzandlarimizga to'g'ri tarbiya berish ularni ona yurtiga Vataniga fidoyilik ruhida tarbiyalash katta ahamiyatga ega. Mamlakatimizda allaqachon uzoq va baxtli umr ko'rishlikning eng muhim chorasi sog'lom turmush tarzini yaratish kerakligi va ilmiy va taqribiy jihatdan isbotlandi. Hatto bu masala muhim mamlakat hujjatlari, Prezident farmon va qonunlarida o'z ifodasini topgan. Bu masalaga mos qanchadan qancha fikrlar, muhokamalar o'tkazilib ommaviy axborot vositalari satrlarida maqolalar, eshittirishlar, ko'rsatuqlar berilmogda.

Ayniqsa o'smirlar tarbiyasiga har tomonlama yani oilada va o'quv o'rinalarida alohida e'tibor qaratish kerak. Shu sababli o'smirlar tarbiyasiga nazar tashlab o'tishi lozim.

Oila tarbiyasining o'ziga xosligi, uning mohiyati, an'anaviyligi, milliy va umuminsoniy axloqiy qadriyatlar tizimida tutgan o'rni, ular bilan uzviy

aloqadorligi, o'zaro ta'siri, oila muhitining barkamol avlod va komil insonni tarbiyalashdagi roli klassik va hozirgi zamon falsafiy tafakkur taraqqiyotida muhim o'rinni egallab turibdi. Mazkur masala bo'yicha jahon falsafasida g'oyat muhim va ibratli fikrlar mavjud bo'lgan.[1, 6-b]

Malumki, o'smirlik davrida o'smirning «men»i qaytadan shakllana boradi. Uning atrofidagilarga, ayniqsa, o'z-o'ziga bolgan munosabati, qiziqishlari, qadriyatlari yo'nalishi keskin o'zgaradi. Uning o'z shaxsiga bolgan e'tibori kuchayadi. O'smirlik davrida shaxs egotsentrizmi boshqa davrdagilarga qaraganda eng yuqori darajaga yetadi. Bu davrda o'smir o'z shaxsiyatini boshqalardan ustun qo'yadigan, o'ziga ko'proq bino qo'yadigan bolib qoladi. Shu davrda o'g'il bolalarda ham, qiz bolalarda ham shunchaki kattalarga taqlid qilib emas, balki tom ma'noda o'zining xatti-harakatini nazorat qilish, o'zining yurish-turishi, kiyinishi, tashqi ko'rinishiga astoydil e'tibor berish, pardoz-andoz bilan shug'ullanish kabi holatlar kuzatiladi.[2, 71-b]

Shu sababli ham bu davrda o'smirlar tarbiyasiga alohida e'tibor berish kerak. Bu davrda o'smirlar o'ziga nisbatan ko'proq diqqat-e'tiborni talab qiladi. Shu o'rinda bu masala bo'yicha quyidagi ma'lumotlarni misol qilishimiz mumkin.

O'smirning eng muhim xususiyatlardan yana biri mustaqil fikrlash, aqlning tanqidiyliги tez rivojlanishidir. Bu esa o'smirning aqliy faoliyatida yangi davr boshlanganini bidiradi. Aqlning tanqidiyliги ayrim hollarda o'qituvchi bilan o'quvchi o'rtasida "anglashilmovchilik"ni keltirib chiqaradi. Aqlning tanqidiyliги o'smirning asosiy xususiyatlarnidan biri bo'lib, o'zgalar mulohazasidan, darslikdan xato kamchiliklar topishga, o'z gapida turib, ayrim fikrlarga qa'tiy e'tiroz bildirishga urinib va bahslashishga moyil bo'ladilar. [3.119]

Giperproteksiya - ota-onalarnint farzandlariga nisbatan haddan ziyod e'tiborli bo'lib, bu ularning bola tarbiyasi uchun kuch, vaqt va e'tiborni ayamasliklarida namoyon bo'ladi. Ya'ni, g'amho'rlikni ota-onanayot tarziga aylantiradi, ya'ni ona uchun ham, ota uchun ham bola tarbiyasi hayotining mazmun-muddaosiga aylaladi.

Bola o'smirlik yoshiga yetganda, erka, tantiq bo'lgani uchun do'stlari va tengqurlari davrasida ham hamma aytganlari bo'lishini istaydigan, liderlikka intiluvchanligini namoyon etgisi keladi, lekin ikkinchi tomondan, aslida unda bunday sifatlar bo'lmaydi. Gap shundaki, bunday holatlarda ota-onanayot surriyodi timsolida ilgari o'z hayot tajribasida erisha olmagan armonlarini ro'yobga chiqargisi keladi, ularning tarbiya uslublari aynan shunga qaratilgan bo'ladi, lekin bola ko'p jihatdan nochor ekanligini keyinchalik ijtimoiy muhitning turli vaziyatlariga tushganida his eta boshlaydi.[4, 59-b]

Oila tarbiyasi - bu umumiy ijtimoiy tarbiya jarayonining shunday bosqichiki, u insonning keyinchalik butun umri davomida oladigan ma'rifat va hayot saboqlari uchun asos, zamin, poydevor vazifasini o'taydi. Oila tarbiyasi ota-onan farzandlar, shuningdek, bir necha avlodga mansub shaxslarning o'zaro qon-qarindoshchilik tnunosabatlari asosiga quriluvchi o'ziga xos betakror ma'naviy-ruhiy jarayondir.

Oila kichik ijtimoiy guruh sifatida doimo o'z a'zolariga o'zaro muloqot va o'zaro tushunish vazifalarini qo'yadi. Busiz oila mustahkam bo'la olmaydi. Oilaning ichki barqarorligiga xizmat qiluvchi iqtisodiy funksiya «oila - jamiyat» tizimida ham amal qiladi hamda oila o'zining shu vazifasi tufayli jamiyatga katta iqtisodiy foyda keltiradi. Chunki inson resursi jamiyat va davlat uchun zarur ekan, bola tarbiyasi, bolani iqtisodiy ta'minlash borasida oila davlat funksiyasining sezilarli qismini o'z zimmasiga olishi, oilaning barqaror bo'lishi, avvalo, davlat manfaatlariga mosdir.[1, 18-34 b ]

Shunday qilib, bola tarbiyasi bo'yicha xalqimizning o'ziga xos uzoq tarixi tajribasi farmoyishdan o'tgan ajoyib dasturlari bor. O'zidan kattalarni, keksalar, otalar, opalar va onalarni hurmat qilish, salom berish, yoshi kattalar bilan odob-axloq bilan gaplashish, betga sapchimaslik kabilalar misol bo'la oladi. Odob axloq ma'naviyatning negizini tashkil qiladi. Odob bo'lmasa inson ijtimoiy shaxs sifatida shakllanmaydi. Yetuk tarbiyalı insonlarda umrning mundarijasi va maqsadi haqidagi tushunchalarini paydo qiladi.

Chiroyli xulqli, ma'naviy yetuk, ma'naviyatli, ma'rifatli yoshlarsiz ulug' keljakli davlat qurish qiyin. Bunday yetuk insonni tarbiyalab yetkazishda faqatgina oiladagi munosabatlarning to'g'ri shakllanganligi bilan erishish mumkindir. Ushbu mustaqil, yangi O'zbekiston davlatining demokratik asoslarini shakllantirish davrida oilaga juda katta javobgarlik bilan munosabat bildirilmoqda.

Bizning ajdodlarimiz farzandlarini milliy qadriyatlarimizga asoslanib tarbiya qilganlar va natijada ular orasidan ko'pgina buyuk insonlar yetishib chiqqanligi sir emas.

Oila muqaddas dargoh, sog'lom avlodni tarbiyalashda oilaning o'rini betakror hisoblanadi. Inson sog'lomligini va ma'naviy qad ko'tarishining birinchi poydevori oilada qo'yiladi. Jamiyat rivojlanib, ma'naviy manbalarning ijtimoiy rivojlanishidagi o'rini va ahamiyati ortgan sayin oiladagi e'tibor va kuchayadi.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Alqarov I., Mamatqulova R., Norqulov X. "Shaxs va oila tarbiyasining pedagogikasi" Toshkent, © «Fan va texnologiya» nashriyoti, 2009 y
- 2.. Shoumarov G'.B., Haydarov I. O. , Soginov N.A. "Oila psixologiyasi" «Sharq» nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati. Toshkent-2015
- 3.Turakulov B.N. "Umumiyl psixologiya" fanidan o'quv-uslubiy majmua, Termiz – 2018.
4. Karimova V.M. Oilaviy hayot psixologiyasi: O'quv qo'llanmasi. - T.. 2006.